Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida qayd etilganidek "... butun standartlashtirish tizimini tubdan qayta qurish kerak. Bundan koʻzlangan maqsad – mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar zamonaviy xalqaro standartlarga javob berishi lozim [1].

Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilgacha boʻlgan davrda Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi atrof muhit sifatining yagona normativlari, standartlarini birgalikda ishlab chiqish va qabul qilishni, atrof muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha xalqaro standartlarga oʻtishni ta'minlash, davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik standartlarni qoʻllashni kengaytirishni, Yevropa standarti asosida nazorat qilinadigan ifloslantiruvchi moddalar sonini optimallashtirgan holda, ularni chiqarish va oqizishni samarali nazorat qilish mexanizmini joriy etishni, qolaversa, amaldagi standartlarning Xalqaro standartlashtirish tashkiloti standartlari bilan uygʻunlashuvini ta'minlashni taqozo etishi ahamiyatlidir. Shunga muvofiq Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi "Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi mas'ulligida, kelajakda amaldagi standartlarni ISO va XEK xalqaro standartlari bilan uygʻunlashtirish ishlarini amalga oshirish lozimligi belgilangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat unitar korxonasi ekologik sertifikatlashtirish yoʻnalishida tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, ushbu sohada ochiqlik hamda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya holatlariga barham berish va bu borada mavjud xizmatlarni toʻliq "Raqamli ekologiya" axborot platforma tizimi doirasida raqamlashtirishni tashkillashtirish, qolaversa, bu borada yangi xizmat turlarini joriy etish, shuningdek, ekologik tamgʻalash (markirovka) tizimini amaliyotga joriy etish, ekologik menejment tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha mutaxassislarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Material va metodlar**

Mazkur ilmiy-tadqiqotda Oʻzbekiston Respublikasi milliy standartlashtirish tizimi boʻyicha qonunchilik normalari, ayniqsa, ekologik standartlar yuzasidan mavjudlari hamda huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanilgan holda qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, statistik materiallarni oʻrganish metodlari qoʻllandi.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

**Tadqiqot natijalari**

Ma'lumki mahsulot sifatiga oid har qanday ma'lumotlar, ya'ni uning asosiy texnik ko'rsatkichlari, jumladan, xomashyo, materiallar, asbob-uskunalarga oid talablar standartlar bilan belgilanadi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan hozirgi davrda standartlashtirish ishlab chiqarish sohasining unumli hamda samarali ishlashi uchun muhim texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu asnoda, standart tushunchasi o'zi nima? degan savolga javob topishimiz lozim. "Standart" inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "namuna", "me'yor" degan ma'nolarni anglatadi [2]. Shuning uchun ham standart mahsulotning ma'lum bir namunaga, etalonga yoki me'yorga to'g'ri va mos kelishini anglatadi. Qolaversa, standart – bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarni eng maqbul darajada tartibga solishga yo'naltirilgan, vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan umummajburiy qoidalar xususiyatiga ega bo'lgan mahsulot va xizmatlarga qo'yilgan talablarni o'z ichiga olgan me'yoriy hujjatdir [3].

Ko'pgina adabiyotlarda standart haqida turli talqinlar mavjudligining guvohi bo'lishimiz mumkin, chunonchi mutaxassis olim V.M. Ogrizkovga ko'ra standart normativ-texnik hujjat hisoblanib, standartlashtirish obyektiga nisbatan me'yorlar, qoida va talablar belgilaydi va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Standart ilmiy-texnika yutuqlari asosida ishlab chiqilib, jamiyat uchun eng maqbul talablarni o'z ichiga olishi lozim. Standartlar moddiy obyektlar (mahsulot, ashyo, modda va boshqalar)ga nisbatan ham tashkiliy-uslubiy hamda umumtexnik munosabatlarga nisbatan ham belgilanishi mumkin. Shuningdek, standartlashtirish orqali tegishli faoliyatining texnik reglamenti o'rnatiladi. Standart va sifat bir-biri bilan ajralmas hisoblanadi. Standart ilg'or ishlab chiqarish tajribasi hamda fan va texnika yutuqlarini o'z ichiga qamrab olib, majburiy talab sifatida huquqiy normaga aylanadi. Shu bilan standart ishlab chiqarish bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi [4].

Shuningdek, standartlashtirishning maqsadi umumiy va konkret maqsadlarga bo'linib, umumiy maqsadlar ichida fuqarolarning hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhit hamda mol-mulkka nisbatan mahsulot, ishlar va xizmatlarning xavfsizligi muhim hisoblanadi [5].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan nashr etilgan "O'zbekcha-ruscha-inglizcha ekologik izohli lug'at"ga asosan standart deganda o'xshash obyektlarni taqqoslash (solishtirish) uchun qabul qilingan andozalar, etalonlar, modellar va me'yoriy-texnik hujjat tushuniladi. Shu bilan birga standartlashtirish deganda – konkret o'zgaruvchan ko'rsatkichlar va etalonlar o'zgarishining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan oralig'ini asoslash ham nazarda tutiladi [6].

Davlat organlarining standartlarni belgilash, ularga rioya etish ustidan nazoratni olib borish bo'yicha faoliyati standartlashtirish deb nomlanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, standartlashtirish bir tomondan muhandislik faoliyati sifatida e'tirof etilsa, ikkinchi tomondan qonun ijodkorligi yoxud huquq ijod qilish yuridik faoliyati sifatida ham tushuniladi.

Ushbu asnoda standartni quyidagicha tariflash lozim, ya'ni standart bu huquqiy ahamiyat kasb etuvchi normativ-texnik hujjat hisoblanib, uning obyektiga nisbatan eng maqbul qoida, shartlar va talablar belgilovchi andoza maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Shu asnoda standartni umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa standartdan farqlash muhimdir, ya'ni standart bu huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan texnik ko'rsatkich yoxud hujjat hisoblanib, ma'lum bir sohada qo'llaniladi, jumladan, ekologik standartlarning belgilash tartibi va standartlarga qo'yi-

ladigan asosiy talablar standart bilan emas, balki standart-huquqiy hujjat orqali amalga oshirilishi lozim.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Ma’lumki, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida ham standartlashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hozirgi sharoitda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish muammosiga har tomonlama yondashuvni hisobga oluvchi standartlashtirish bo‘yicha ilmiy metodologiya zarur. Shu sohadagi eng muhim metodologik masalalardan biri standartlashtirish obyektlarini tanlashdir. Obyektlarni to‘g‘ri tanlash tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha davlat standartlar tizimini yaratish hamda xalq xo‘jaligida shu yo‘nalishdagi ishlarni yagona metodologik asosda olib borilishiga imkoniyat yaratadi [7].

Darhaqiqat, ekologik standartlar tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu normativ-texnik hujjat hisoblanib, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash bo‘yicha kompleks choralar, talablar, qoida va me’yorlarni o‘rnatadi. Shu bilan birga, ekologik standartlar tabiatni muhofaza qilish muammolari va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash, yer, yerosti boyliklari, tuproq va suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, atmosferani himoya qilish, flora va faunani muhofaza qilish bo‘yicha tashkiliy-metodik jihatdan mavjud muammolar sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Binobarin, ekologik standartlashtirish shunday faoliyatni anglatadiki, unda mahsulot sifati, xizmat va ishlarning raqobatbardoshligini oshirish sohasida ixtiyoriy ko‘pmarotaba tarzda qo‘llaniladigan ekologik qoida va talablarni o‘rnatish bo‘yicha faoliyat hamdir. Ekologik standart funksional belgilangan vazifasiga ko‘ra uchta asosiy guruhga bo‘linadi: birinchi, atrof muhitni muhofaza qilishga oid standartlar; ikkinchi, alohida har bir tabiiy obyekt turining muhofazasi uchun standart; uchinchi, mahsulot va ish (xizmat) larning inson hayoti va sog‘ligi uchun ekologik jihatdan xavfsizligiga oid standart.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tabiatni muhofaza qilish sohasida standartlashtirish o‘zining ma’lum bir qiyinchiligiga ega hamda buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish muammosiga har tomonlama yondashuvni hisobga oluvchi standartlashtirishning ilmiy metodologiyasiga muhtoj. Yana bir muhim masalani alohida ta’kidlash joizki, ekologik standartlashtirishning tizimi uchta asosiy yo‘nalishdan iborat. Chunonchi, birinchi yo‘nalishdagi standartlar atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishning yo‘l qo‘yiladigan ekologik standartlarini belgilash tartibi va shartlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish esa atrof tabiiy muhitning muhofaza qilinishini tashkillashtirishga taalluqli talablarni belgilaydi. Uchinchi yo‘nalishdagi standartlar esa atrof tabiiy muhit muhofazasiga taalluqli tushunchalarning yagona talablarini belgilaydi.

Ekologik standartlar ustuvor ravishda texnik qoidalarni belgilab, huquqiy akt xususiyatlariga ham ega bo‘ladi, biroq ular qonunlar va qonunosti hujjatlaridan quyidagilar bilan farqlanadi. Birinchidan, davlat ekologik standartlari qonun hujjatlariga nisbatan yordamchi vazifani bajaradi. Ikkinchidan, ekologik standartlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmaydi, ular atrof tabiiy muhitni, uning obyektlarini yoki mahsulotlarni ma’lum bir sifat ko‘rsatkichlariga mos kelishi lozimligini belgilaydi. Uchinchidan, standartlashtirish bir xil xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan tipik obyektlar bo‘yicha belgilanishi lozim. To‘rtinchidan, butunlay atrof tabiiy muhit yoki uning obyekti ekologik standartlashtirilmaydi, balki ularning ma’lum bir xususiyatlari, funksiyalari standartlashtiriladi.

Qolaversa, standartlarda vaqti-vaqti bilan yillar davomida fan va texnikaning oxirgi yutuqlari, mahalliy hamda xorijiy tajribani hisobga olgan holda mavjud iste’moldan chiqqan (eski) ko‘rsatkichlarni yangilab turish maqsadga muvofiqdir. Standartlar avvalo,

faqat mahsulotning xususiyatlari va undan foydalanish sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan talablarni belgilashi lozimdir.

Modomiki, ekologik standartlashtirish tegishli guruhlar bilan tasniflanishi muhim ekan, u quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi: umumiy qoidalar, atamalar, tushunchalar, klassifikatsiyalar, tabiiy muhitning sifat ko‘rsatkichlari, ifloslantiruvchi moddalarni tashlashning parametrlari, tabiiy resurslardan foydalanishning jadalligi ko‘rsatkichlari, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qoidalari, tabiiy obyektlar holati parametrlarini aniqlash metod (uslub)lari va xo‘jalik faoliyati ta’sirining shiddatliligi, atrof-muhit holatini nazorat qilish va o‘lchash vositalariga nisbatan talablar, atrof-muhitni ifloslanishdan himoyalovchi uskuna, inshootlar va apparatlarga nisbatan qo‘yilgan turli talablar va boshqa standartlardan iboratdir.

Umuman, standartlar inson hayoti hamda sog‘ligi, inson genetik fondini hamda mol-mulki xavfsizligi talablarini ham o‘z ichiga olishi lozim deb hisoblaymiz. Chunonchi, radiatsiyaviy xavfsizlik, zararli yoxud zaharli kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni yo‘l qo‘yiladigan darajadagi miqdorda tashlash yoki chiqarish miqdorlarini, zararli biologik organizmlarni, insonlar sog‘ligini yomonlashuviga olib keluvchi turli mikrob va bakteriyalarning toksik jihatdan ta’sirini zararsiz darajada ta’minlash maqsadga muvofiqdir [8].

Bundan tashqari, ushbu soha olimlarining e’tiroficha, raqamlashtirishga oid o‘zgarishlar hozirgi hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasi ham bundan holi emas. Raqamli texnologiyalarning asosiy xususiyatlaridan biri ular jamiyat hayotining turli sohalarida “mufassal” hamda universal ekanligidir [9]. Ammo qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar ekologik masalalarni hal etishning tayyor yechimlarini taklif qilmasdan, balki ular katta miqdordagi statistik axborotni qayta ishlashni jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi, qisqa muddatlarda uni chuqur va har tomonlama tahlil qilishni amalga oshiradi, umuman ma’lum bir sohada boshqaruvga oid faoliyatni sifat jihatidan o‘zgartiradi [10].

Shu bilan bir qatorda, ekologik standartlar o‘tgan asrlarda, sobiq Ittifoq hududida tegishlicha shakllana boshlangan, ya’ni bu borada ilk hujjat GOST 17.0.0.01-76. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasidagi standartlar tizimi. Asosiy qoidalar standarti 208 hisoblanib, mazkur standart esa, ushbu yo‘nalishdagi barcha standartlar uchun asos bo‘ladigan eng muhim hujjat sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur standartda, tabiatni muhofaza qilish degan ta’rif tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni saqlash va qayta tiklashni ta’minlovchi, inson bilan atrof tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rnatishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi ekanligi e’tirof etilgan. Qolaversa, mazkur standartlar tizimi o‘zida maxsus vakolatli organlar tomonidan qabul qilingan 80 ta davlat miqyosidagi hamda 50 ta sohalarga oid standartlardan iborat. Hozirga qadar ushbu standartlar o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q [11].

Qayd etish lozimki, standartlar insonning hayoti, sog‘ligi, genetik fondini va uning mol-mulki xavfsizligi talablarini o‘z ichiga olishi, jumladan, radiatsiyaviy xavfsizlikni, zararli va zaharli kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni yo‘l qo‘yiladigan darajadagi tashlash va chiqarish miqdorlarini, zararli biologik organizmlarni, inson kasalligiga olib keluvchi mikrob va bakteriyalarning toksik ta’sirini zararsiz darajada ta’minlashi lozim [9]. Mazkur standartda, tabiatni muhofaza qilish degan ta’rif tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni saqlash va qayta tiklashni ta’minlovchi, inson bilan atrof tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni

o'rnatishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi ekanligi e'tirof etilgan [12].

Xullas, barcha standartlar inson hayoti, sog'ligi, uning genetik fondini hamda mol-mulki xavfsizligi talablarini ham o'z ichiga olishi lozim, chunonchi, radiatsiyaviy xavfsizlik, zararli yohud zaharli kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan darajadagi miqdorda tashlash yoki chiqarish miqdorlarini, zararli biologik organizmlarni, insonlar sog'ligini yomonlashuviga olib keluvchi turli mikrob va bakteriyalarning toksik jihatdan ta'sirini zararsiz darajada ta'minlash maqsadga muvofiqdir [13; 14].

Bu borada T.V. Gashnikovaning e'tiroficha, ekologik me'yorlash tizimiga kiritilishi kerak bo'lgan texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish sohasidagi me'yorlarning yana bir toifasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda noqulay ekologik oqibatlarga olib keladigan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan standartlar bo'lib, ular ekologik jihatdan xavfli sanoat tarmoqlarini ishlashi uchun texnik talab hamda boshqa ekologik ahamiyatga ega tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydigan profilaktik yo'nalishdagi ekologik me'yorlardir [15]. D.I. Shakirovaning fikricha esa, tashqi o'xshashlik xususiyatlariga qaramay ekologik me'yorlash hamda texnik tartibga solish, ular turli xil tartibga solish obyektlari mavjud bo'lgan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan davlat ta'sirining ikkita alohida usulini ifoda etadi [16].

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha "Ekofond" axborot tizimini joriy etish kabi ustuvor loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutishi bilan bir qatorda standartlarni raqamlashtirish bo'yicha "E-Standard" axborot tizimini joriy qilish umumiy dasturda mustahkamlandi. Bunda, ushbu sohada davlat standartlar fondining elektron bazasini yaratish hamda standartlar internet do'konini ishga tushirish hamda ushbu tizimni elektron hukumat tizimlari va manfaatdor vazirlik hamda idoralar bilan integratsiya qilishni amalga oshirish lozimligi belgilab qo'yildi.

Fikrimizcha, bu borada ekologik standartlashtirish tizimini mustahkam joriy etish hamda rivojlantirish zarur, qolaversa, bu borada "E-eco-standard" axborot tizimini keng joriy etish hamda ekologik me'yorlarni o'zida aks ettirgan "E-eco-normativ" axborot tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Pirovardida esa, ushbu sohadagi raqamlashtirishni yanada rivojlantirish, kelajakda biz uchun muhim bo'lgan masalalarni ijobiy hal qilishda ko'mak beradi. Chunonchi, ushbu sohada barcha ma'lumotlarni to'plash, tabiatga zararli ta'sir qiluvchi obyektlar hisobini yuritishda, ekologik me'yor doirasida chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning holati, bunday zararli ta'sir uchun to'lovlarni undirish mexanizmini yanada takomillashtirishda, hattoki davlat ekologik nazoratini amalga oshirish mexanizmining rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, manfaatdor bo'lgan hamda jamoat ekologik nazoratini amalga oshirayotgan turli subyektlarning ushbu ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

**Xulosalar**

Xulosa qilib shuni alohida qayd etish lozimki, aslida, standartlarni belgilashda mahsulot va xizmatlar, ishlar (ishlab chiqarish jarayonlari)ning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik tizimlar, shu jumladan, suv havzalari, atmosfera havosi, tuproq, hayvonot va o'simlik dunyosining qayta tiklanishini ta'minlash maqsadida quyidagi talablar ko'zda tutilishi lozim.

*Birinchidan* – ishlab chiqarilishi, muomalada bo'lishi, iste'mol qilinishi yoki utilizatsiya qilinishida mahsulot iste'moli, xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy ekologik tizimlariga fizikaviy xavfsiz-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

lik darajasini ta’minlash va fizikaviy ta’sir (tebranish, elektromagnit, radiatsiyaviy) ni va kimyoviy (zararli kimyoviy va zaharli moddalarni yoki ular tarkibiga kiruvchi ifloslantiruvchi komponentlarni tashlash yoki chiqarish) ta’sirni oldini olish.

*Ikkinchidan* – ishlab chiqarish, muomalada bo‘lishi, iste’mol qilinish yoki utilizatsiya qilish (ko‘mib tashlash yoki yo‘q qilish)da mahsulot, xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy ekologik tizimlarini biologik xavfsizligini, ya’ni biologik ta’sir ko‘rsatishni (biologik organizmlar, shu jumladan, mikroblar, bakteriyalar, viruslarni tashlash, chiqarish)ni yo‘l qo‘yiladigan darajasidan oshib ketmasligini ta’minlash va boshqalar.

*Uchinchidan* – ekologik standartlarning ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari bilan birligi va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solishning elementi sifatida yoritish va b.

Shu asnoda yana bir muhim masala shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi Qonuniga ekologik standartlashtirishning mazmun mohiyatini ochib beruvchi hamda ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi alohida bir norma, ya’ni ekologik standart va ekologik standartlashtirish to‘g‘risida alohida modda kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ekologiya sohasida yagona bir tizimga keltirilgan, asosiy ekologik qonun hisoblangan ushbu qonun tabiat bilan jamiyat o‘rtasida vujudga keladigan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona qonun sifatida e’tirof etilgan. Ushbu qonunda mazkur moddalarning aks ettirilishi kelajakda ekologik standartlashtirishga oid vujudga kelgan har qanday masala yohud muammoni hal etishi lozim bo‘ladi. Bu esa qonunchiligimizdagi ba’zan uchrab turadigan kollizion normalarning bartaraf etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatilishiga sabab bo‘ladi.

## REFERENCES

1. "Xalq so‘zi", January 16, 2017, No. 11 (6705.)
2. Buriyev X., Rizayev R. Osnovy standartizatsii, metrologii i sertifikatsii sel'skokhozyaystvennoy produktsii [Fundamentals of standardization, metrology and certification of agricultural products]. Tashkent, Mekhnat Publ., 1999, p. 152.
3. Ismatullayev P.R., Maksudov A.N. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish [Metrology, standardization and certification]. Tashkent, O‘zbekiston Publ., 2001.
4. Ogryzkov V.M. Standart. Kachestvo. Zakon [Standard. Quality. Law]. Moscow, Yurid. lit-ra Publ., 1998.
5. Krylova G.D. Osnovy standartizatsii, sertifikatsii, metrologii [Fundamentals of standardization, certification, metrology]. Moscow, Yuniti-Dana Publ., 2000.
6. Alixonov B., Samoylov S., Ibragimov R. O‘zbekcha-ruscha-inglizcha ekologik izohli lug‘at [Uzbek-Russian-English ecological explanatory dictionary]. Tashkent, Chinor ENK Publ., 2004, p. 304.
7. Ruetskaya S.S., Pivovarova T.M., Moiseeva M.N. Ob''ekty standartizatsii v oblasti okhrani pochv, zemel', landshaftov. Nauchnye aspekty standartizatsii v oblasti okhrani prirody i ratsional'nogo ispol'zovaniya pochv, zemel, landshaftov [Objects of standardization in the field of conservation of land, land, and tracts of land. Scientific aspects of standardization in the field of conservation of land and rational use of land, land, and tracts of land]. Moscow, *Scientific works of the Institute of Standardizationi.* 1998, p. 76.

8. Shvandar V.A., Panov V.P., Kupryakov Ye.M. Standartizatsiya i upravlenie kachestvennoy produktsiyy [Standardization and quality management of products]. Moscow, Yuniti-Dana Publ., 1999, p. 487.

9. Vlasenko V.N., Shirobokov A.S. Tsifrovizatsiya gosudarstvennogo ekologicheskogo upravleniya: pravovye aspekty [Digitalization of state environmental management: legal aspects]. *RUDN Journal of Law,* 2021, vol. 25, no. 2, pp. 601–619.

10. Sukhova Ye.A., Abanina E.N. Pravovye problemy tsifrovoy transformatsi sistemy upravleniya prirodopolzovaniem kak mexanizma obespecheniya ekologicheskoy bezopasnosti [Legal issues of digital transformation of the environmental management system as a mechanism for ensuring environmental safety]. *Russian Justice*, 2020, no. 8, pp. 17–20.

11. Ratner S.V., Almastyan N.A. Ekologicheskiy menedzhment v Rossiyskoy Federatsii: problemy perspektivy razvitiya [Environmental management in the Russian Federation: problems and development prospects]. *National Interests: Priorities and Security,* 2014, no. 17.

12. Khaustov A.P., Redina M.M. Normirovanie antropogennykh vozdeystviy i otsenki prirodoyemkosti territoriy [Standardization of anthropogenic impacts and assessment of the territory's natural capacity]. Moscow, RUDN Publ., 2008, p. 282.

13. Brinchuk M.M. Normirovanie kachestva okruzhayushchey sredy kak faktor kachestva zhizni [Standardization of environmental quality as a factor in quality of life]. *Environmental Protection and Quality of Life: Legal Aspects*, 2011, no. 2011.

14. Rajabov N.Sh. Ekologik standartlashtirishni huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari xususida [On some issues of legal regulation of ecological standardization]. *Newsletter of the Berdaq Karakalpak State University*, 2017, vol. 3, no. 36, pp. 112–114.

15. Gashnikova T.V. Tekhnicheskie normativnye pravovye akty kak istochniki ekologicheskikh normativov [Technical regulatory legal acts as sources of environmental standards]. *Right.by*, 2019, vol. 4 (60), pp. 51–56.

16. Shakirova D.I. Tekhnicheskoe regulirovanie i ekologicheskoe normirovanie: sravnitel'nyy analiz [Technical regulation and environmental standards: a comparative analysis]. *Standards and Quality*, 2015, no. 8.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2025-yil 3-son**

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3